



2023- yil yanvar-iyun oyi uchun
dastlabki ma'lumot



NAMANGAN VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi:
(69) 227-84-95



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Namangan viloyatida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, viloyatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba oltirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Namangan viloyatida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importini optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-** yil yanvar-iyun oyida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **634,1 mln. AQSH** dollariga yetdi va **2022-** yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **23,5 mln. AQSH** dollariga yoki **3,8 %** ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-iyun, mln. AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2023- y.: **634,1** +3,8 %

(2022- y.: **610,6**)



Saldo

2023- y.: - **98,1** (2022 y.: - **67,3**)



Eksport

2023- y.: **264,3** -2,7 %

(2022- y.: **271,6**)



Tovarlar: **257,4**



Import

2023- y.: **369,7** +9,1 %

(2022- y.: **339,0**)



Tovarlar: **369,7**


Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralari qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi **264,3** mln. AQSH dollariga (**2,7** % ga kamaydi) va import hajmi **369,7** mln. AQSH dollariga (**9,1** % ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida **-98,1** mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



NAMANGAN VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2023- yil yanvar-iyun, mln. AQSH dollari)

<p>Rossiya</p> <p>TSA – 159,0</p> <p>Eksport: 106,3 Import: 52,7</p> <p> 25,1 %</p>	<p>XXR</p> <p>TSA – 138,2</p> <p>Eksport: 17,9 Import: 120,3</p> <p> 21,8 %</p>	<p>Qozog‘iston</p> <p>TSA – 55,4</p> <p>Eksport: 24,1 Import: 31,3</p> <p> 8,7 %</p>	<p>Turkiya</p> <p>TSA – 51,1</p> <p>Eksport: 20,4 Import: 30,7</p> <p> 8,1 %</p>	<p>Germaniya</p> <p>TSA – 21,0</p> <p>Eksport: 4,3 Import: 16,7</p> <p> 3,3 %</p>
<p>Polsha</p> <p>TSA – 20,3</p> <p>Eksport: 7,7 Import: 12,7</p> <p> 3,2 %</p>	<p>Belarus</p> <p>TSA – 19,9</p> <p>Eksport: 2,5 Import: 17,3</p> <p> 3,1 %</p>	<p>Qirg‘iz Respublikasi</p> <p>TSA – 17,4</p> <p>Eksport: 11,7 Import: 5,8</p> <p> 2,8 %</p>	<p>Koreya Respublikas</p> <p>TSA – 13,9</p> <p>Eksport: 3,3 Import: 10,6</p> <p> 2,2 %</p>	<p>Litva</p> <p>TSA – 12,2</p> <p>Eksport: 0,4 Import: 11,8</p> <p> 1,9 %</p>

Namangan viloyati jahonning 75 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiyada (**25,1 %**), XXRda (**21,8 %**), Qozog‘istonda (**8,7 %**), Turkiyada (**8,1 %**), Germaniyada (**3,3 %**), Polshada (**3,2 %**) va Belarussiyada (**3,1 %**) qayd etilgan.



Shuningdek, qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko‘rish mumkin.

Xususan, , Qozog‘iston, Eron va Azerbaydjon kabi qo‘shni davlatlar bilan TSAda so‘nggi yillarda katta o‘zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so‘nggi uch yilda TSA Tojikiston va Qozog‘iston bilan **1,2** barobarga oshdi.



TASHQI SAVDO PROFITSITI BO‘LGAN ASOSIY UCH DAVLAT

(2023- yil yanvar-iyun, mln. AQSH dollari)























Tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan uchta davlatda ijobiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Xususan, Afg‘oniston, Qirg‘iz Respublikasi va Tojikiston davlatlari shular jumlasidandir. Qolgan **17** ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-iyun, mln. AQSH dollari)

Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
 Rossiya	143,7	182,5	159,0
<i>Eksport</i>	96,5	127,7	106,3
<i>Import</i>	47,2	54,8	52,7
 XXR	133,1	162,2	138,2
<i>Eksport</i>	33,0	23,6	17,9
<i>Import</i>	100,1	138,6	120,3
 Qozog'iston	55,9	46,2	55,4
<i>Eksport</i>	20,0	16,7	24,1
<i>Import</i>	35,9	29,5	31,3
 Turkiya	48,6	50,7	51,1
<i>Eksport</i>	15,8	27,7	20,4
<i>Import</i>	32,7	23,0	30,7
 Germaniya	6,4	14,4	21,0
<i>Eksport</i>	0,8	4,0	4,3
<i>Import</i>	5,6	10,4	16,7
 Polsha	7,5	10,0	20,3
<i>Eksport</i>	4,1	5,0	7,7
<i>Import</i>	3,3	5,0	12,7
 Belarus	6,0	10,8	19,9
<i>Eksport</i>	1,2	1,1	2,5
<i>Import</i>	4,8	9,6	17,3
 Qirg'iz Respublikasi	31,6	45,9	17,4
<i>Eksport</i>	28,7	39,2	11,7
<i>Import</i>	2,9	6,7	5,8
 Koreya Respublikasi	5,1	10,6	13,9
<i>Eksport</i>	0,1	1,1	3,3
<i>Import</i>	5,0	9,6	10,6
 Litva	1,5	9,5	12,2
<i>Eksport</i>	0,3	0,7	0,4
<i>Import</i>	1,2	8,8	11,8

	Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
	Hindiston	10,2	6,0	8,9
	<i>Eksport</i>	0,7	0,3	0,3
	<i>Import</i>	9,5	5,8	8,6
	Malayziya	4,3	2,9	7,8
	<i>Eksport</i>	-	-	0,1
	<i>Import</i>	4,3	2,9	7,7
	Italiya	4,4	2,9	7,4
	<i>Eksport</i>	0,7	1,0	0,9
	<i>Import</i>	3,7	2,0	6,5
	Fransiya	3,9	5,0	6,1
	<i>Eksport</i>	-	-	0,2
	<i>Import</i>	3,9	4,9	6,0
	Tojikiston	2,7	4,4	5,0
	<i>Eksport</i>	1,9	2,2	3,9
	<i>Import</i>	0,7	2,2	1,1
	Eron	2,5	4,1	4,6
	<i>Eksport</i>	0,2	1,7	1,7
	<i>Import</i>	2,3	2,5	2,9
	Ozarbayjon	0,3	1,8	3,9
	<i>Eksport</i>	0,3	1,2	3,7
	<i>Import</i>	-	0,5	0,3
	Shveytsariya	1,6	1,8	3,2
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	1,6	1,8	3,2
	Turkmaniston	6,0	8,1	3,2
	<i>Eksport</i>	1,5	2,9	2,3
	<i>Import</i>	4,5	5,2	0,9
	Ukraina	7,6	7,2	3,2
	<i>Eksport</i>	4,4	3,6	1,6
	<i>Import</i>	3,1	3,7	1,6



NAMANGAN VILOYATIDA TUMANLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-iyun)*

	Hajm Mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Namangan viloyati	634,1	103,8	100,0
Namangan sh.	293,7	132,9	46,5
<i>tumanlar:</i>			
Mingbuloq	7,5	58,6	1,2
Kosonsoy	46,0	96,3	7,3
Namangan	24,9	67,2	3,9
Norin	29,6	176,9	4,7
Pop	16,2	83,9	2,6
To'raqo'rg'on	77,2	116,6	12,2
Uychi	42,1	83,3	6,6
Uchqo'rg'on	17,6	61,0	2,8
Chortoq	20,3	88,1	3,2
Chust	40,8	67,5	6,4
Yangiqo'rg'on	16,8	67,9	2,7

Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari



Namangan sh. 293,7

To'raqo'rg'on 77,2

Kosonsoy 46,0

Eng quyi hajm,
mln. AQSH dollari



Mingbuloq 7,5


Yangiqo'rg'on 16,8

Uchqo'rg'on 17,6

Viloyatda tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Namangan shahri **46,5** % ulush bilan **293,7** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Mingbuloq tumani **1,2** % ulush bilan **7,5** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

NAMANGAN VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyun, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-iyun oyida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **48,5** % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan **2,3** % ga kamayib, so'ngi uch yilda eng past ko'rsatkichni qayd etdi.



Namangan viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2023- yilning yanvar-iyun oyida 2022- yilning mos davriga nisbatan **2,3** % ga ko'paydi va jami TSAdagi ulushi **51,5** % ni tashkil etdi.

Namangan viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-iyun holatiga ko'ra, **271,0** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **159,7** mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import **111,2** mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-iyun, mln. AQSH dollari)


<p>Rossiya TSA – 159,0 Eksport – 106,3 Import – 52,7</p> 	<p>Qozog'iston TSA – 55,4 Eksport – 24,1 Import – 31,3</p> 
<p>Qirg'iz Respublikasi TSA – 17,4 Eksport – 11,7 Import – 5,8</p> 	<p>Belarus TSA – 19,9 Eksport – 2,5 Import – 17,3</p> 
<p>Ozarbaujon TSA – 3,9 Eksport – 3,7 Import – 0,3</p> 	<p>Tojikiston TSA – 5,0 Eksport – 3,9 Import – 1,1</p> 
<p>Turkmaniston TSA – 3,2 Eksport – 2,3 Import – 0,9</p> 	<p>Ukraina TSA – 3,2 Eksport – 1,6 Import – 1,6</p> 
<p>Moldova TSA – 3,1 Eksport – 2,8 Import – 0,3</p> 	<p>Armaniston TSA – 1,0 Eksport – 0,9 Import – 0,1</p> 




Namangan viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (**58,7 %**), Qozog'iston (**20,4 %**) hamda Belarus (**7,3 %**) davlatlari bilan qayd etildi.

NAMANGAN VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-iyun, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



 Namangan viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi **252,6** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **145,5** mln. AQSH dollari, import hajmi esa **107,1** mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Armaniston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.

NAMANGAN VILOYATI EKSPORTI




Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'lishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar soni **352** taga yetdi va ular tomonidan **264,3** mln. AQSH dollari qiymatidagi (2022- yilning mos davriga nisbatan **2,7** % ga kайyundi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2023- yil yanvar-iyun, ulushi % da)



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (**keyingi o'rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni **XSST** bo'yicha kodlashtirish, **TIF TN** va **XSST** o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



NAMANGAN VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-iyun, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami eksport	271,6	264,3	122,9	97,3	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat va tirik hayvonlar	33,5	39,9	89,1	118,9	12,3	15,1
Ichimliklar va tamaki	0,6	2,0	3,5 m.	3,0 m.	0,2	0,7
Xom ashyo yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat hisoblanadi	3,7	4,3	77,9	114,3	1,4	1,6
Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar	1,1	-	3,3 m.	-	0,4	-
Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar	4,2	2,0	2,9 m.	48,4	1,5	0,8
Sanoat mahsulotlari	158,2	128,5	133,2	81,2	58,2	48,6
Mashinalar va transport uskunolari	2,6	7,1	42,9	2,7 m.	0,9	2,7
Turli xil tayyor mahsulotlar	62,2	68,1	134,5	109,4	22,9	25,7
Xizmatlar	5,4	6,9	97,9	126,8	2,0	2,6
boshqalar	-	5,7	-	-	-	2,2


Eksport tarkibida tovarlar ulushi **97,4 %** ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**58,2 %**), turli xil tayyor buyumlar (**22,9 %**) va Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**12,3 %**) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2023- yilning yanvar-iyun oyida MDH mamlakatlariga **196,4** mln. AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qililib, jami eksportning **74,3** % ini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-iyun, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-iyun oyida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, XXR, Polsha va Turkiya kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy Eksportdagi ulushi **72,8** % ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-iyun, % da)





NAMANGAN VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-iyun, yillar kesimida)*

Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Rossiya Federatsiyasi	127,7	106,3	132,3	83,2	1	1
Qozog'iston	16,7	24,1	83,3	144,6	5	2
Turkiya	27,7	20,4	174,9	73,7	3	3
Xitoy	23,6	17,9	71,5	75,9	4	4
Qirg'iziston	39,2	11,7	136,6	29,7	2	5
Polsha	5,0	7,7	120,7	154,1	6	6
Germaniya	4,0	4,3	5,0 m.	106,7	7	7
Tojikiston	2,2	3,9	112,2	177,4	10	8
Ozərbayjon	1,2	3,7	4,3 m.	3,0 m.	14	9
Koreya Respublikasi	1,1	3,3	12,2 m.	3,0 m.	16	10
Moldova Respublikasi	0,8	2,8	83,4	3,5 m.	17	11
Belarus	1,1	2,5	92,8	2,2 m.	15	12
Turkmaniston	2,9	2,3	193,5	79,8	9	13
Afg'oniston	1,5	2,3	79,6	147,7	12	14
Eron	1,7	1,7	6,9 m.	101,1	11	15
Ukraina	3,6	1,6	80,4	44,5	8	16
Belgiya	1,3	1,5	3,3 m.	111,9	13	17
Birlashgan Arab Amirliklari (BAA)	0,8	1,4	9,2 m.	178,8	18	18
Quvayt	0,0	1,2	-	-	20	19
Isroil	0,6	1,1	182,2	171,7	19	20



NAMANGAN VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2023- yil yanvar-iyun)*

	Hajm Mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Namangan viloyati	264,3	97,3	100,0
Namangan sh	101,7	119,7	39,0
<i>tumanlar:</i>			
Mingbuloq	1,7	21,0	0,6
Kosonsoy	34,4	160,8	13,0
Namangan	10,7	76,1	4,0
Norin	3,6	97,7	1,4
Pop	6,5	71,3	2,4
To'raqo'rg'on	50,5	98,5	19,1
Uychi	17,1	74,1	6,5
Uchqo'rg'on	13,9	67,0	5,3
Chortoq	1,0	112,7	0,4
Chust	17,5	84,9	6,6
Yangiqo'rg'on	4,5	38,9	1,7

Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari



Namangan sh. **101,7**

To'raqo'rg'on **50,5**

Kosonsoy **34,4**

Eng quyi hajm,
mln. AQSH dollari



Chortoq **1,0**

Mingbuloq **1,7**

Norin **3,6**

Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Namangan shahri **39,0** % bilan **101,7** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Chortoq tumani **0,4** % bilan **1,0** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So'nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan Namangan viloyati uchun muhim soha bo'lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo'shilishini ta'minlaydi.

To'qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xom-ashyosini o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2023- yil yanvar-iyun oyi yakuni bo'yicha **193,7 mln.** AQSH dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning **73,3 %** ini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan **7,7 %** ga kamaaydi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor to'qimachilik mahsulotlari (**26,0 %**), tayyor trikotaj kiyimlar (**23,8 %**) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan **65** turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning **28** ta davlatiga eksport qilindi.

TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-iyun, mln. AQSH dollari)

	2022- yil	2023- yil
 <u>Ip kalava</u>	75,9	-
 <u>Tayyor to'qimachilik mahsulotlari</u>	37,7	50,4
 <u>Gazlamalar</u>	19,2	21,0
 <u>Trikotaj mato</u>	6,1	6,0
 <u>Tayyor trikotaj kiyimlar</u>	38,8	46,1

DAVLATLAR KESIMIDA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI *(yanvar-iyun, mln. AQSH dollari)*

		2022- yil	2023- yil	O‘sish sur‘ati, % da
	Rossiya	110,9	70,7	63,8
	Qozog'iston	5,9	15,9	2,7 m.
	Qirg'iziston	25,5	8,4	32,8
	Polsha	4,7	6,7	142,8
	Germaniya	3,9	3,8	95,8
	Ozərbayjon	0,2	2,7	10,8 m.
	Moldova	0,8	2,6	3,4 m.
	Koreya	-	2,0	-
	Belarus	0,8	1,6	209,8
	Ukraina	3,1	1,5	48,7
	Belgiya	1,3	1,4	103,1
	Xitoy	14,3	1,2	8,5
	Tojikiston	-	1,1	-
	Turkmaniston	0,4	1,0	2,3 m.
	Boshqa davlatlar	30,3	73,7	2,4 m.



Viloyatning to‘qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag‘batlantirish borasidagi amaliy ishlar natijasida mamlakatimizning ushbu sohadagi salohiyati va hamkor davlatlardagi to‘qimachilik bozoridagi ulushi oshib bormoqda.

To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Rossiya (**36,5 % – 70,7 mln. AQSH dollari**) va Qozog‘iston (**8,2 % – 15,9 mln. AQSH dollari**) davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.



NAMANGAN VILOYATINING IMPORTI




2023- yilning yanvar-iyun oyida import hajmi **369,7** mln. AQSH dollarini va 2022- yilning mos davriga nisbatan **109,1** % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**28,5** %), sanoat tovarlari (**24,5** %) hamda Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**18,2** %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2023- yil yanvar-iyun, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvar-iyun oyida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **30,8** mln. AQSH dollariga ko'paydi va **369,7** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



NAMANGAN VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-iyun, yillar kesimida)


XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami import	339,0	369,7	117,1	109,1	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat va tirik hayvonlar	47,9	67,1	114,5	140,1	14,1	18,2
Xom ashyo yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat hisoblanadi	18,9	22,2	110,1	117,7	5,6	6,0
Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar	13,4	7,2	199,8	53,7	3,9	1,9
Hayvonlar va o'simlik moylari, yog'lar va mumlar	11,1	9,6	123,2	86,0	3,3	2,6
Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar	42,8	40,0	122,6	93,6	12,6	10,8
Sanoat mahsulotlari	73,0	90,6	103,0	124,2	21,5	24,5
Mashinalar va transport uskunalari	122,5	105,4	124,0	86,0	36,1	28,5
Turli xil tayyor mahsulotlar	9,5	9,1	96,6	96,1	2,8	2,5
Bosha tovarlar	-	18,5	-	-	-	5,0



2023- yil yanvar-iyun natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi **30,1** % ni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **98,9** % ga kamaydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-iyun, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-iyun oyida Namangan viloyati **68** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Rossiya, Turkiya, Qozog'iston, Germaniya, Polsha va Hindiston) jami importning **2/3** qismini tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-iyun, % da)





NAMANGAN VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-iyun, yillar kesimida)

Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Xitoy	138,6	120,3	138,5	86,8	1	1
Rossiya Federatsiyasi	54,8	52,7	116,1	96,2	2	2
Qozog'iston	29,5	31,3	82,2	105,9	3	3
Turkiya	23,0	30,7	70,2	133,6	4	4
Belarus	9,6	17,3	201,7	179,6	6	5
Germaniya	10,4	16,7	185,4	161,3	5	6
Polsha	5,0	12,7	149,8	252,7	11	7
Litva	8,8	11,8	727,8	133,8	8	8
Koreya Respublikasi	9,6	10,6	191,6	111,2	7	9
Hindiston	5,8	8,6	60,5	150,1	10	10
Malayziya	2,9	7,7	66,9	2,7 m.	13	11
Italiya	2,0	6,5	53,1	3,3 m.	15	12
Frantsiya	4,9	6,0	126,4	120,9	12	13
Qirg'iziston	6,7	5,8	230,8	86,9	9	14
Shveysariya	1,8	3,2	113,5	178,8	16	15
Eron	2,5	2,9	109,3	116,9	14	16
Avstriya	0,2	2,0	9,2	13,0 m.	19	17
Niderlandiya	1,0	2,0	121,8	204,8	18	18
Ekvador	-	1,8	-	-	20	19
Syangan (Gonkong) (Brit.)	1,2	1,6	161,5	129,9	17	20



NAMANGAN VILOYATNING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2023- yil yanvar-iyun)

	Hajm Mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Namangan viloyati	369,7	109,1	100,0
Namangan sh	191,9	141,2	51,9
<i>tumanlar:</i>			
Mingbuloq	5,8	124,9	1,6
Kosonsoy	11,6	44,1	3,1
Namangan	14,3	61,8	3,9
Norin	26,0	199,5	7,0
Pop	9,8	95,2	2,6
To'raqo'rg'on	26,7	178,6	7,2
Uychi	25,1	91,0	6,8
Uchqo'rg'on	3,7	45,7	1,0
Chortoq	19,3	87,1	5,2
Chust	23,3	58,5	6,3
Yangiqo'rg'on	12,3	93,6	3,3

Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari



Eng quyi hajm,
mln. AQSH dollari



Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Namangan shahri **51,9 %** bilan **191,9** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Uchqo'rg'on tumani **1,0 %** bilan **3,7** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI




Viloyatda investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2023- yil yanvar-iyun oyida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalari hajmi **105,4** mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2023- yilning shu davriga nisbatan **86,0** % ga kamaydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **28,5** % ga yetdi.



MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2023- yil yanvar-iyun)




2023- yil yanvar-iyun oyida mashina va transport asbob-uskunalari importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **17,1** mln. AQSH dollariga kamaydi. Ushbu tovarlarni Namangan viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR — **54,7** mln. AQSH dollari (**51,9** %), Turkiya — **13,8** mln. AQSH dollari (**13,1** %) va Germaniya — **9,4** mln. AQSH dollari (**8,9** %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2023 - yil yanvar-iyun oyida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi **90,6** mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **24,2** % ga ko'paydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi **24,5** % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2023- yil yanvar-iyun, ulushi, % da)

39,1 mln. AQSH doll.
ulushi – 43,1 %

20,2 mln. AQSH doll.
ulushi – 22,3 %

7,9 mln. AQSH doll.
ulushi – 8,8 %



XXR



Rossiya



Turkiya

6,5 mln. AQSH doll.
ulushi – 7,2 %

6,2 mln. AQSH doll.
ulushi – 6,9 %



Qozog'iston



Germaniya



Sanoat mahsulotlari importida beshta yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Qozog'iston, Germaniya) jami importning 88,3 % ini tashkil qiladi, bu 80,0 mln. AQSh dollarini tashkil etadi.